«O'ztransgaz» AJ faoliyatini 2024–2027 yillarga prognozlashtirishda ekonometrik modellar asosida tahlil	784
Sindorov Davlatbek Abdumajid o'g'li, Murodov Sardor Nurali o'g'li	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar.....	791
Mahmudov Otamurod Hoshimovich, Murtazova Sh.N.	
Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	795
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	
O'zbekiston chakana savdosi tizimi va uning rivojlanishi.....	806
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o'rni va maqsadi	812
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Investitsion faoliyatni amalga oshirishning xorij tajribasi va mamlakatimizda foydalanish istiqbollari.....	816
O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni.....	822
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	829
Бегалиев Файзали Умаралиевич	
Sog'lomlashtirish turizmida ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning sintezi.....	832
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	



Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari.....	835
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Обзор по теме Современные системы управления возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления).....	841
Алиев Абдор Мураткулович	
O'zbekistonda turizm va servis sohasida davlat- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari.....	846
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....	864
Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbas Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	



AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINING YANGI TURLARI VA IMKONIYATLARI

A.B. Khayitov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

ORCID: 0000-0002-6535-1157

Email: mannonbuxar@gmail.com

Annotatsiya: COVID-19 pandemiyasi sababli global darajada iqtisodiyot uchun xavf darajasi inqiroz holatiga olib kelgan davrda ishsiz qolgan aholining o'zini o'zi ish bilan band qilish borasida qabul qilingan chora-tadbirlar va tartibga solish yo'nalishlarini ijrosi bo'yicha erishilgan amaliy natijalar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi band qilish, ishsizlik, COVID-19 pandemiyasi, mehnat bozori, iqtisodiy inqiroz, tadbirkorlik faoliyati.

Abstract: The practical results achieved in the implementation of the adopted measures and regulatory legal acts to ensure self-employment of the unemployed population during the period when the level of global economic risks caused by the COVID-19 pandemic has reached a crisis level are substantiated.

Key words: self-employment, unemployment, COVID-19 pandemic, labor market, economic crisis, entrepreneurship.

Аннотация: Обоснованы практические результаты, достигнутые при реализации принятых мер и нормативно-правовых актов по обеспечению самозанятости безработного населения в период, когда уровень мировых экономических рисков, обусловленных пандемией COVID-19, достиг кризисного уровня.

Ключевые слова: самозанятость, безработица, пандемия COVID-19, рынок труда, экономический кризис, предпринимательство.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida yuz bergan eng jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bu — COVID-19 pandemiyasi bo'ldi. U insoniyat tarixida misli ko'rilmagan darajada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy inqirozlarga sabab bo'ldi. Bu holat global miqyosda nafaqat sog'liqni saqlash tizimlarining zaif joylarini ochib berdi, balki iqtisodiyot, bandlik, ta'lim va boshqa sohalarining favqulodda holatlarga qanchalik tayyor emasligini ham ko'rsatdi. Pandemiya boshlangan ilk kunlardan oq mamlakatlar qatorida O'zbekiston ham jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy sinovlarga duch keldi.

Xususan, karantin cheklovlari sababli minglab yirik va kichik korxonalar vaqtincha faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi, ayrimlari esa butunlay yopildi. Bu esa o'z navbatida mehnat bozori barqarorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatdi. Korxonalarning qisqa muddatli yopilishi yoki faoliyatini to'xtatishi natijasida ko'plab ishchilar o'z ish joylarini yo'qotdi yoki vaqtincha daromadsiz holatda qoldi. Ayniqsa, og'zaki kelishuvlar asosida yoki mehnat shartnomasiz ishlayotgan fuqarolar (norasmiy sektorda band bo'lganlar) ish haqi va ijtimoiy himoya kafolatlaridan mosuvo bo'ldi. Ish beruvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan mas'uliyatsizlik holatlari, xodimlarning huquqiy maqomining aniqlanmaganligi, ularning tibbiy sug'urtaga ega emasligi yoki nafaqaga chiqish tizimida hisobga olinmasligi — bularning barchasi pandemiya sharoitida aholining eng zaif qatlamlarining iqtisodiy himoyasiz qolishiga olib keldi.

Shuningdek, bandlik tizimidagi mavjud muammolar va norasmiy sektorda ishlayotganlarning yuridik maqomi aniqlanmaganligi, ularning ishsizlik statistikalariga to'liq kiritilmasligi davlat tomonidan ko'rilayotgan ijtimoiy himoya choralari samaradorligini pasaytirdi. O'zbekiston sharoitida pandemiyaning dastlabki bosqichlaridayoq aholining ijtimoiy zaif qatlamlari, ayniqsa, kunlik daromad bilan yashovchi fuqarolar uchun bandlikning muqobil shakllarini, jumladan, o'zini o'zi ish bilan band qilish (self-employment) imkoniyatlarini yaratish ehtiyoji keskin ortdi. Bu ehtiyoj, o'z navbatida, davlat tomonidan mehnatga oid siyosatni qayta ko'rib chiqish, yangi yondashuvlar va yengillashtirilgan tartiblarni joriy etish zaruratini yuzaga chiqardi.

Shu munosabat bilan pandemiya keyingi davrda hukumat tomonidan norasmiy sektorda ishlayotganlarni qonuniylashtirish, o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish va ularga ijtimoiy kafolatlar yaratish borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar nafaqat bandlik darajasini ko'tarish, balki rasmiy mehnat munosabatlarini kuchaytirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlashga qaratilgan edi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ish bilan bandlik tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, jumladan rossiyalik iqtisodchi olim A.I. Rofe ushbu tushunchaga o'z munosabatini bildirib, "Ish bilan bandlik — bu mamlakat aholisining iqtisodiy faol qismidagi kishilar uchun ishlarning mavjudligi, ya'ni amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan, daromadli mashg'ulot bilan band bo'lishidir" [1] — deb ta'rif bergan.

Shuningdek, yetuk iqtisodchi olimlardan I.M. Aliev, N.A. Gorelov, L.O. Ilyinlar ushbu tushunchaga: "Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hamda mehnatdan daromad (ish haqi) keltiruvchi ijtimoiy foydali mehnat sifatida namoyon bo'lishi mumkin" [2] — deb ta'rif berganlar.

Mazkur ta'riflardan farqli o'laroq, bizning fikrimizcha, ish bilan bandlik munosabatlari mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir. Aholining ish bilan bandligi mehnat unumdorligining oshishiga va o'z navbatida, milliy boylikning ham o'sishiga xizmat qiladi. Ayni paytda ishsizlikning salbiy oqibatlari shundaki, u nafaqat ishlab chiqarishning pasayishiga, balki pirovardida qashshoqlikning boshlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida aholi ish bandligini shakllantirishning boshqa tamoyillari ham amal qiladi. Bunda davlat mavjud mehnat resurslaridan ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish borasidagi monopoliya da'volaridan voz kechadi. Shu asosda boshqa tamoyil — erkin tanlab olingan bandlik tamoyili, ya'ni qonuniy daromadlar manbaiga ega bo'lgan mehnatga layoqatli aholining ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmashlik huquqi yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining mehnat qilish qobiliyati (ishchi kuchi)ni tasarruf etish huquqi faqat uning egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli bo'lib, uni hech kim mehnat qilishga majbur qilishga haqli emas (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezonini ish bilan bandlikka bo'lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik muammosi ijtimoiy muammo. Shunday ekan, eng yuqori darajadagi aholi demografik jihatlar va undan samarali foydalanish hamda jamiyat rivoji uchun yo'naltirilganligi ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi. Aholining ish bilan bandligi muammolarining ijtimoiyligi uning, eng avvalo, inson, uning manfaatlari va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi. Qanchalik darajada insonning ijtimoiylashuv darajasi yuqori bo'lsa, shunchalik darajada inson kapitalining sifat darajasi o'zgarib boradi.

Akademik Q. Abdurahmonov tomonidan: "...ish bilan bandlikning eng kam deganda to'rt ijtimoiy jihatini hisobga olish lozimligini, ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi — mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligi, turmush darajasi va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ish bilan bandlik mehnat faolligini oshirish, mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ularning oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolati, har kimning va umuman jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirishdir. Aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi" — deb ta'kidlanadi.

Darhaqiqat, ushbu yo'nalishlar milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarini qayta guruhlariga ajratish, fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish, turmush sifati darajasini oshirish yo'llarini belgilab beradi. Bu g'oyat muhim muammolardan biri ekanligi, ayniqsa globallashtirish sharoitida ish bilan bandlik tarkibida o'zini-o'zi band qilganlar ulushini oshirish va tartibga solish muammolarini, binobarin, muallif qayd etgandek jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish aynan butun iqtisodiyotni isloh qilishning muvaffaqiyati, mazkur muammoni e'tirof qilish va hal etishga ma'lum darajada bog'liqligini guvohi bo'ldik. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotining asosi — aholi tarkibidan hududlar miqyosida aholining o'zini-o'zi ish bilan bandlik darajasini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash maqsadida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy uslublar qo'llanildi. Tadqiqotni olib borishda tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, statistika va taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu bilan birga, qonuniy faoliyat yuritishlarini rag'batlantirish maqsadida bir qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyunda qabul



qilingan PQ-4742-sonli qarori aholi tarkibida o'zini-o'zi ish bilan band qilish yo'lidagi dastlabki normativ-me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Qarorga asosan jismoniy shaxslar 67 ta faoliyat turidan istalganini tanlab, "Soliq" mobil ilovasi orqali masofadan turib, bepul ro'yxatdan o'tish imkoniyatiga ega bo'ldi hamda quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilab berildi:

1-jadval. Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari.

№	Yo'nalishlar	Xizmat ko'rsatish turlari
1.	Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Chorva mollarini boqish, ularni parvarish qilish, qishloq xo'jalik o'simliklarini ekish va parvarish qilishda tomorqa egalari yordam berish
2.	Maishiy xizmatlar	Sartaroshlik, manikyur, kosmetolog, pedikyur, uyda kir yuvish va dazmollash, kalitlar tayyorlash, poyabzal tikish, ta'mirlash va bo'yash xizmatlari
3.	Sanoat yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Yog'och me'morchiligi, sanitariya xizmati, elektr montaj ishlari, makulatura, plastik idish, temir tersak to'plash va qayta ishlash xomashyo to'plash
4.	Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish va xizmatlar	Non, uyda popkorn, muzqaymoq, salatlar, salqin ichimliklar, aysron, rya va x.k. tayyorlab bozorlarda (yarmakalarda) sotish
5.	Ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha xizmatlar	Uyda repetitorlik qilish, bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish, uy xo'jaligini yuritish, xonalarni tozalash, xalq tabobati
6.	Axborot-kommunikatsiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish, dasturiy ta'minot, mobil ilovalar va veb-saytlar ishlab chiqish, matnli tarjima qilish va ishlov berish

E'tiborlisi, yuqoridagi faoliyat turlari bilan oldinlari yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin edi. Endilikda esa o'zini o'zi band qilgan fuqarolar ham ushbu faoliyat turlari bilan bir vaqtning o'zida shug'ullanishlari mumkin bo'ldi.

Quvonarlisi, ushbu amaliyot orqali minglab norasmiy sektorda ishlab kelayotgan jismoniy shaxslarning faoliyati qonuniylashtiriladi. Ularga ijtimoiy soliq to'langan davrda ish staji hisobga olinadi hamda kelgusida pensiya ta'minotiga asos yaratiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik — bu jismoniy shaxsning yuridik shaxs tashkil etmasdan va yakka tartibdagi tadbirkor (YE) sifatida ro'yxatdan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi hisoblanadi.

2024 yil davomida sohalar kesimida o'sish quyidagicha bo'lgan:

Maishiy xizmatlar — 104,3 foiz (+976 ming nafar, 2025 yil 1-yanvar holatiga 1 mln 912 ming nafar);


Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish — 94,6 foiz (+203,1 ming nafar, 417,8 ming nafar);

Axborot-kommunikatsiya — 87 foiz (+55,7 ming nafar, 119,7 ming nafar);

Ijtimoiy yo'nalishdagi xizmatlar — 55,9 foiz (+178,2 ming nafar, 496,9 ming nafar);

Qishloq xo'jaligi xizmatlari — 53,6 foiz (+386 ming nafar, 1 mln 106,5 ming nafar);

Sanoat xizmatlari — 49,6 foiz (+138,9 ming nafar, 418,9 ming nafar).



1-rasm. 2025 yil 1-yanvar holatiga ko'ra hududlar kesimida o'zini o'zi ish bilan band etganlar holati tahlili (ming kishi)



2025 yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni 4,471 million nafardan oshgani ma'lum qilindi. Yil davomida ushbu ko'rsatkich 76,5 foizga (1,9 million nafar) oshgan. Eng yuqori o'sish maishiy xizmatlar hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida kuzatilgan.

Hududlar kesimida eng ko'p o'zini o'zi band qilgan shaxslar quyidagi viloyatlarda ro'yxatdan o'tgan:

- Samarqand viloyati – 508,1 ming nafar
- Toshkent viloyati – 447,2 ming nafar
- Qashqadaryo viloyati – 442,5 ming nafar

(1-rasmga qarang)

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunga kelib, o'zini o'zi band qilganlarning 58 foizi erkaklar, 42 foizi esa ayollar hisoblanadi.

Yengil avtotransportda yo'lovchi tashish faoliyati bo'yicha ro'yxatdan o'tgan fuqarolar soni 707,3 ming nafarga yetgan. Shundan 450,5 ming nafari 2024 yilda ro'yxatdan o'tgan. Davlat soliq qo'mitasi avvalroq 2024 yilda O'zbekistonda rasmiy taksi bozori hajmi 5,89 trillion so'mga yetganini ma'lum qilgan edi. Bir qatnov uchun o'rtacha to'lov 18 456 so'mni tashkil qilgan. Yil davomida deyarli 320 million qatnov amalga oshirilgan bo'lib, ularning 23,7 foizi karta orqali to'langan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2026 yil 1-yanvardan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari 104 tadan 72 taga qisqaradi. Sartaroshlik, repetitorlik, foto-videochilik, kopirayterlik kabi faoliyatlar ro'yxatdan chiqarib tashlanadi. Ammo uchta yangi ish turi, jumladan, marketpleyslarda savdo qilish faoliyati ro'yxatga kiritiladi.

O'zini o'zi ish bilan band qilish faoliyatining tashkil qilinishi bilan bog'liq jarayonlar huquqiy-me'yoriy asoslari, aholining mazkur yo'nalishdagi faoliyatda o'z o'rnini topishi hamda daromad olish imkoniyatining shakllanganligi, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan aholi qatlamining o'zini o'zi band qilgan tadbirkor maqomini olishi hamda ularning to'la ma'noda ijtimoiy kafolatlardan foydalana olayotganligi, eng asosiysi esa, keyingi besh yil davomida ular orasida mavqe va moliyaviy imkoniyatlaridagi o'sish ko'rsatkichlari, qolaversa ijtimoiy ahamiyatlilik darajasining oshishi, ushbu sohada tarkibiy o'zgarishlar qilishni taqozo etdi.

O'zini o'zi ish bilan band etish faoliyati jamiyatda o'z o'rnini va ahamiyatiga ko'ra ijtimoiy muammolar qatoriga kiradi. Shunday ekan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining ish bilan bandligini samarali ta'minlashda o'zini o'zi ish bilan band etishning o'rnini beqiyosdir. Aynan ushbu faoliyat turiga davlat tomonidan uzluksiz va doimiy ravishda imkoniyatlar yaratilsa, u holda aholi tarkibida qashshoqlikni qisqartirish, aholi daromadlari va turmush darajasini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rofo A.I. Ekonomika truda: uchebnik. – 2-nashr. – M.: KNORUS, 2011. – B. 159.
2. Aliev I.M., Gorelov N.A., Ilyina L.O. Ekonomika truda: uchebnik. – M.: Yurayt nashriyoti, 2012. – B. 123.
3. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 257 b.
4. "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagi PF-50-son Farmoni. – lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 9 yanvardagi "2024 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida"gi PQ-7-son Qarori. – lex.uz.
6. Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyunda qabul qilingan PQ-4742-son Qarori. – lex.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
